

ZAMONAVIY BANK XIZMATLARI VA ULARNING TURLARI

Umiraliyev Azizjon Abdujabbor o‘g‘li

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11312046>

Annotatsiya. Bank xizmatlarining turli tumanligi albatta quvonarli holat. Uning turlarining tavsiflanishi har bir pul bilan munosabat qiladigan inson uchun muhimdir. Mazkur maqolada bank xizmatlarining zamonaviy turlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlari, bank xizmatlari nazariyasi evolyusiyasi, raqobatbardoshlik, tovar aylanmasi.

MODERN BANKING SERVICES AND THEIR TYPES

Abstract. The variety of banking services is a good thing. Description of its types is important for every person dealing with money. This article describes modern types of banking services.

Key words: banking services, evolution of theory of banking services, competitiveness, turnover of goods.

СОВРЕМЕННЫЕ БАНКОВСКИЕ УСЛУГИ И ИХ ВИДЫ

Аннотация. Разнообразие банковских услуг, безусловно, радует. Описание ее видов важно для каждого человека, имеющего дело с деньгами. В данной статье описаны современные виды банковских услуг.

Ключевые слова: банковские услуги, эволюция теории банковских услуг, конкурентоспособность, товарооборотом.

Har mamlakat iqtisodiyoti yuksalishida bank tizimi yetakchi bo‘g‘inni tashkil etadi. Bank tizimi samaradorligiga iqtisodiyotning barqaror bo‘lishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Mustaqillik yillarida bank tizimi shakllanishi tubdan o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Respublikamiz ikki pog‘onali bank tizimiga ega bo‘ldi. Bank tizimini erkinlashtirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bu esa o‘z o‘rnida banklarning moliya bozorida tutgan o‘rnini mustahkamlab, ularning kuchli raqobat sharoitida samarali ishlashini ta’minlashga imkoniyatlarni yaratib berdi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank mahsulotlari va bank xizmatlari bozori barqaror sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Bank xizmatlari nazariyasi evolyusiyasi qator rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tdi. Bank xizmatlari nazariyasi rivojlanishining boshlang‘ich bosqichida bank xizmatlari bozori va uning bank xizmati segmenti o‘rganilgan. Ikkinchisi bosqich alohida mamlakatlarning kreditmoliya

tizimlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hamda bank kapitali globallashuvi va markazlashuvining bank xizmatlari bozoriga ta’sirining ehtimoliy oqibatlarini tadqiq etilgan.

Tijorat banklarining xizmatlari va bank marketingi bo‘yicha o‘zining muhim hissalarini qo‘sghan xorijlik olimlari qatoriga Lavrushen I.O, Balabanova I.T., Boleskaya V., V.Dik, Burdinskiy A., Lebedev A., Yudin V.V., Korobov Yu.I. va boshqalarni alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ushbu mavzu bo‘yicha O.Ortiqov, I.Kulliev, B.K.Mirzamaydinov, Z.B.Mustafaev, O. Aliqorievlar izlanishlar olib borishgan hamda shu mavzuda turli xil maqola va o‘quv qo‘llanmalar chop etishgan.

Bank xizmatlari yangi xizmatlarni taklif etish va ularning sifat xususiyatlarini yaxshilash yo‘li bilan mijozlarni jalgan etishga qaratilgan. Bank xizmati bank operatsiyalarini optimal darajada bajarishga ko‘maklashadi, ishlab chiqilgan va ko‘rsatilgan bank xizmatlari esa bank operatsiyalari bilan birgalikda bank mahsulotini yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti pul-tovar munosabatlari asosida rivojlanayotgani uchun bank xizmati mijozlari uchun tovar bo‘lib xizmat qiladi. Bank xizmati sifatini oshirish yangi ilmiy yondashuv va ishlanmalarni talab etadi. Shulardan kelib chiqib “bank xizmati tovar sifatida” konsepsiyasining loyihasi ishlab chiqilgan.

“Bank xizmati tovar sifatida” konsepsiyasini bank sohasidagi innovatsion jarayonlarni tashkil qilish va yangi bank mahsulotlari ishlab chiqishni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega.

Bank faoliyatidagi innovatsion jarayonlarni tahlil qilish natijasida, yangi bank mahsulotining hayotiylik sikli yetti bosqichdan iboratligi aniqlandi va yangi bank mahsulotining hayotiylik sikli algoritmi ishlab chiqilgan. Ushbu algoritm banklarda yangi bank mahsulotlari hayotiylik sikli konsepsiyasini yaratilishiga va samarali boshqarilishiga, novatorligi oshishiga, ya’ni, o‘z imiji yaratilishi va moliya bozorida o‘z “joyi”ni egallashiga imkon beradi.

Bank xizmatlari bozoridagi raqobat kurashida bank xizmatlarining sifati muhim omillardan biri hisoblanadi. Bank xizmati sifatini bank xizmatlarining ko‘zlangan va bir-biriga bog‘liq ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga ega bo‘lgan xossa va xususiyatlari yig‘indisi sifatida ta’riflanadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, bank xizmatining u yoki bu ehtiyojni qondirish qobiliyatları tavsifi, bank xizmatining foydali xususiyatlari majmuasi bank xizmati sifatini ifodalaydi va bu holat bank xizmatini “tovar” iqtisodiy tushunchasiga tenglashtiriladi. Bank xizmatining raqobatbardoshligi ko‘rsatkichi – sifat ko‘rsatkichidan farqli ravishda, mijozning aniq manfaati va ehtiyojlari qondirilishini ta’minlovchi xususiyatlar majmuasi bilan aniqlanadi, boshqa xususiyatlar inobatga olinmaydi. Masalan, bank xizmati sifati yangi xususiyatlarga ega bo‘lishi

hisobiga sezilarli darajada oshirilsa, lekin uning qiymati mijozlarning aksariyatida jiddiy qiziqish uyg‘ota olmasa, unda bank xizmatining yuqori darajadagi sifati va past darajadagi raqobatbardoshligini kuzatish mumkin.

Amerikalik olimlar tomonidan bank xizmatining sifati mezonlari konseptual modeli ishlab chiqilganligi va quyidagi mezonlar, ya’ni moddiylik (bankning jihozlanganligi: orgtexnika, bino intererlari, bank mutaxassisining tashqi ko‘rinishi, axborot materiallari), ishonchlilik (va’da qilingan xizmatni aniq, asosli va ko‘rsatilgan muddatida bajarish), ziyraklilik (samimiy yordam berish va tezkor xizmat ko‘rsatish), dadillik (xizmat ko‘rsatuvchi bank mutaxassisining bilimliligi, mas’uliyatliligi, ishonchliligi va xushmuomalaligi), xayrixohlik (jonkuyarlik ko‘rsatish va bank xizmati iste’molchisiga individual yondashish) bilan o‘lchanishi asosida shakllanganligi ko‘rsatilgan. Bundan, bank xizmati sifatiga har tomonlama yondashilganlik ko‘rinadi.

Rivojlangan mamlakatlarning tijorat banklari amaliyotida privatbanking; xolding – banking; internet-banking tizimlari; mobil-banking tizimlari (SMS-banking, STK-banking, Java-banking, WAP-banking), o‘zo‘ztga xizmat ko‘rsatishning innovatsion modellari kabi bank xizmatlari va mahsulotlari keng rivojlanmoqda. Bundan tashqari, AQSh, Germaniya, Birlashgan Qirollik, Kanada, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda metall tangalar muomalasi uchun Peny Arcade bank avtomatik qurilmasi xizmatlari, pochta bo‘limlarining moliyaviy va bank xizmatlari, moliyaviy kompaniyalar (uylar) xizmatlari keng yo‘lga qo‘yilgan.

Internet-banking xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan hamda mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan plastik kartalarga ochilgan hisobvaraqlarini Internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma’lumotlarini (to‘lov hujjatlar va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar) ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib o‘z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko‘rishi, pul o‘tkazmalarini tayyorlab bankga uzatishi mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyida yoki boshqa o‘ziga qulay sharoitda:

* to‘lovlarni o‘tkazish;

* to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;

* barcha hisobotlarni olish kabi barcha amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamiz tijorat o‘z mijozlariga yeng yangi va yuksak texnologiyali online bank axborot xizmatini taqdim yetmoqda.

Tezkor SMS-xabarlash – bu, axborot xizmatlari kompleksi bo‘lib, ular so‘m plastik kartochkalari egalarining uyali telefonlariga SMSxabarlar yuborish orqali taqdim etiladi.

Mijoz har safar bank kartochkasi orqali pul to‘laganida yoki uning kartochka hisobvarag‘iga mablag‘lar kelib tushganida bajarilgan operatsiya va kartochka hisobvarag‘i qoldig‘i haqida SMS-xabar oladi.

Xizmat barcha uyali aloqa operatorlari abonentlariga taqdim etiladi. Kecha-kunduz ishlovchi xabarlash tizimi mijozning kartochkasidagi mablag‘lardan ruxsatsiz foydalanish xatarini kamaytirish va ular ishlatilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yangi bank mahsulotlari va xizmatlarining joriy etilishi mamlakatimiz bank xizmatlari bozori kengayishiga sharoit yaratmoqda. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlangan sari tijorat banklari ham chakana operatsiyalar, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini oshirish orqali o‘z faoliyatini diversifikatsiya qilib bormoqdalar.

REFERENCES

1. Ann L. Owen, Javier M. Pereira Bank concentration, competition and financial inclusion. Article in press 2018 y.
2. Aliqoriev O.F. Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo‘nalishlari. Avtoreferati. 2011y 40-b
3. Qoraliev T.M., Tangishov M.R. Internet-bankingni Respublikamiz bank amaliyotida qo‘llanilishining dolzarbligi // Toshkent «TMI» 2012 y.
4. Qulliev I. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari. “Moliya” jurnali 2012 yil 3-son;
5. Tangishov M.R. Tijorat banklarimiz investitsion faolligini oshirishda masofaviy bank xizmatlarining ahamiyati // Toshkent “TDIU” 2012 y. II TOM, 125-127 b;
6. <http://www.cbu.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki);
7. <http://www.gov.uz> (O‘zbekiston Respublikasining hukumat portalı);
8. <http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi);
9. [http:// www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) (Jaxon banki);

10. <http://www.bankir.ru> (Rossiya bank tizimi haqida ma'lumot sayti);
11. <http://www.banking.com> (Moliyaviy xizmatlar bo'yicha ma'lumot sayti);
12. <http://www.internetworldstats.com>(Internetdan foydalanuvchilar soni statistik ma'lumotlarini ko'rsatuvchi sayt);